



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA Olish USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	
XALQARO KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	295
Aliyev Bekzod Ilhomovich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	301
Холикова Дурдона Бунёдjon кизи	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQUARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....	308
Salimov Burxoniddin	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI.....	314
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
AQLLI SHAHAR TIZIMIDA IJTIMOIIY SOHA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARI.....	319
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QO'SHILGAN QIYMATNI TAQSIMLASHNING SAMARALI SOLIQ MEXANIZMIGA OID XORIJ TAJRIBALARI.....	326
A.A. Bobomurodov	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT" TIZIMIGA O'TISH ZARURIYATI VA XIZMATLAR SOHASI UCHUN IQTISODIIY AHAMIYATI.....	333
Y.M.Xalikov	
OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	342
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
YOSHLARNING RAQAMLI MEHNAT PLATFORMALARIDA BARQAROR BANDLIGINI RISKKA ASOSLANGAN STRATEGIK BOSHQARISH.....	349
Palvonova Sevara Baxromovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	355
Almanov Ilhom Sultonovich	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI GEYMIKATSIYALASH ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA IQTISODIIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	362
Aslonova Rushano Ilxomovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIIY NATIJADORLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH.....	368
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
HUDUDLARNING IQTISODIIY RIVOJLANISHIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	374
Xolmatov Azamatjon Abdupattoyevich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКСПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКСПОРТНОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	380
Муниса Турдибаева	
LOYIHA MENEJERLARINING SOFT SKILLS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING LOYIHALAR IQTISODIIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	394
Zairova Farida To'xtamurod qizi	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIIY KO'RSATKICHLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH.....	400
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	407
Jumaev Sohob Baxodirovich	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI VA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TRANSFORMATSIYON MODELII.....	412
Murodullayeva Guljaxon A'zamjon qizi	
INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY VA USLUBIIY ASOSLARI	418
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	426
Olimboyeva Nazokat Abdujabbor qizi	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARIDA INTEGRALLASHGAN RISKKA YO'NALTIRILGAN AUDIT MODELIDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI.....	431
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	441
Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT FAOLIYATINI SOLIQ MEXANIZMLARI ASOSIDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH	446
O'rinova Umida Qodirjonovna	
SOG'LIQNI SAQLASHNING YAGONA RAQAMLI EKOTIZIMIDA KIBERXAVFSIZLIK RISKLARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	450
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
XORAZM VILOYATIDA YER BOZORI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	456
Ubaydov Mirshod Ismailovich	
O'ZBEKISTON UY-JOY BOZORIDA MOLIYAVIY PUFAK XAVFINI BAHOLASH: INTEGRAL INDEKSNI SHAKLLANTIRISH VA EKONOMETRIK TAHLIL	462
Botirov Islombek Ulug'bek o'g'li	
SUTCHILIKGA IXTISOSLASHGAN CHORVACHILIK KORXONALARIDA TANNARXNING BUXGALTERIYA HISOBINING OBYEKTI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	467
Razzoqov Abbas Abdumalik o'g'li	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLAR ICHKI AUDITINING INSTITUTSIONAL-TASHKILY MEXANIZMI	472
Mulayev Farxod Alisherovich	
SHAHAR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK BARQARORLIK TAMOYILLARINI JORIY ETISH: MUAMMOLAR, INNOVATSION YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR.....	477
Nurtayev Zaxriddin	
SANOATNING «DRAYVER» SOHALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI JADALLASHTIRISH	482
Xolbozorov Muzraf Yusup o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ЦИФРОВОГО СТРАХОВАНИЯ ТУРИСТСКИХ РИСКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	489
Усманова Азиза Бахтиер кизи	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI.....	497
Rajabov Saidrasul Xalil o'g'li	
AYOLLAR TADBIRKORLIGI VA GENDER TENGLIGI: XITOIY VA O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORLARI TRANSFORMATSIYASI MISOLIDA	504
Xasanova Shaxzoda	

AYOLLAR TADBIRKORLIGI VA GENDER TENGLIGI: XITOIY VA O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORLARI TRANSFORMATSIYASI MISOLIDA



Xasanova Shaxzoda

G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
Toshkent filiali «Mehnat iqtisodiyoti va strategik menejment»
kafedrası mustaqil izlanuvchisi
E-mail: sshakhzoda@yahoo.com
ORCID: 0009-0000-4452-0073

Annotatsiya. Ayollar tadbirkorligining rivojlanishi mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida gender tengligiga erishishning muqobil mexanizmi sifatida Xitoy va O'zbekiston tajribasi misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi har ikki mamlakatda an'anaviy yollanma mehnat bozorida gender tafovuti saqlanib qolayotgan bir sharoitda tadbirkorlik ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirishning qay darajada samarali vositasi bo'la olishini aniqlashdan iborat. Mualliflik yondashuviga ko'ra, ayollar tadbirkorligining muvaffaqiyatini gender tengligini ta'minlovchi kengroq institutsional muhitdan, jumladan, parvarishlash yuklamasi, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari va huquqiy tizimdan ajratilgan holda baholab bo'lmaydi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekiston bo'yicha 2025-yilgi keng ko'lamli so'rov va fokus-guruh tadqiqoti (4 019 respondent) ma'lumotlarini Xitoy tajribasi hamda xalqaro ilg'or amaliyotlar (Finlyandiya va Shimoliy Makedoniya) bilan yagona tizim doirasida qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda tadbirkor ayollar uchun asosiy to'siq moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatidan ko'ra, ish va oilaviy majburiyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bilan bog'liqligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, mehnat bozori transformatsiyasi, gender tengligi, Xitoy, O'zbekiston, parvarishlash iqtisodiyoti, institutsional qo'llab-quvvatlash, Women, Business and the Law.

Аннотация. Развитие женского предпринимательства рассматривается на примере Китая и Узбекистана в качестве альтернативного механизма достижения гендерного равенства в условиях трансформации рынка труда. Цель исследования заключается в определении степени эффективности предпринимательства как инструмента повышения экономической самостоятельности женщин в обеих странах в условиях сохраняющегося гендерного разрыва на традиционном рынке наёмного труда. Авторский подход основывается на положении о том, что успешность женского предпринимательства не может оцениваться в отрыве от более широкой институциональной среды обеспечения гендерного равенства, включающей нагрузку по уходу, доступ к финансовым услугам и правовую систему. Научная новизна исследования заключается в проведении в рамках единой аналитической системы сравнительного анализа данных крупномасштабного опроса и исследования фокус-групп ПРООН по Узбекистану за 2025 год (4 019 респондентов), опыта Китая и международных передовых практик (Финляндия и Северная Македония). Результаты исследования позволяют обосновать, что в Узбекистане основным барьером для женщин-предпринимателей является не столько доступ к финансовым ресурсам, сколько обеспечение баланса между работой и семейными обязанностями.

Ключевые слова: женское предпринимательство, трансформация рынка труда, гендерное равенство, Китай, Узбекистан, экономика ухода, институциональная поддержка, Women, Business and the Law.

Abstract. The development of women's entrepreneurship is comparatively analyzed using the experiences of China and Uzbekistan as an alternative mechanism for achieving gender equality in the context of labor market



transformation. The study aims to determine the extent to which entrepreneurship can serve as an effective instrument for enhancing women's economic independence in both countries while gender disparities persist in traditional wage employment. The author's approach is based on the premise that the success of women's entrepreneurship cannot be assessed separately from the broader institutional environment supporting gender equality, including the care burden, access to financial services, and the legal system. The scientific novelty of the study lies in conducting, within a unified analytical framework, a comparative analysis of data from UNDP's 2025 large-scale survey and focus-group study on Uzbekistan (4,019 respondents), the experience of China, and international best practices (Finland and North Macedonia). The findings substantiate that the primary barrier facing women entrepreneurs in Uzbekistan is related not so much to access to financial resources as to achieving a balance between work and family responsibilities.

Keywords: women's entrepreneurship, labor market transformation, gender equality, China, Uzbekistan, care economy, institutional support, Women, Business and the Law.

KIRISH

Hozirgi vaqtda mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalasi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda raqamlashtirish, xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi va platforma iqtisodiyotining rivojlanishi ayollar uchun an'anaviy yollanma mehnatdan tashqari muqobil iqtisodiy faoliyat yo'llarini ochib bermoqda. Shu sababli ushbu jarayonlarning gender tengligiga ta'sirini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda "ayollar tadbirkorligi" tushunchasi ilmiy adabiyotlarda, xalqaro tashkilotlar hisobotlarida va davlat siyosatiga oid hujjatlarda tobora keng qo'llanilmoqda. Bu bejiz emas, chunki ko'plab tadqiqotchilar aynan ushbu masalani o'rganib, uning turli jihatlarini tadqiq qilmoqda va tegishli yechimlarni taklif etmoqda.

Bugungi kunda tadqiqot mavzusining dolzarbligi shu bilan ham belgilanadiki, O'zbekistonda so'nggi besh yil davomida tadbirkor ayollar soni yetti barobar oshgan (2020-yilda 300 mingdan 2024-yilda 2,1 millionga). Mazkur ijobiy o'sish yollanma mehnat bozoridagi gender tafovutlarini yanada qisqartirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda.

Tadqiqot obyekti — Xitoy va O'zbekistonda mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida ayollar tadbirkorligining rivojlanish jarayonlari.

Tadqiqot predmeti — ayollar tadbirkorligi ko'rsatkichlari, ularni qo'llab-quvvatlovchi huquqiy-institutsional mexanizmlar va tadbirkor ayollar duch keladigan to'siqlarning tarkibi (ayniqsa, moliyaviy resurslar va parvarishlash yuki nisbati).

Tadqiqotning maqsadi — Xitoy va O'zbekiston misolida ayollar tadbirkorligining o'sish dinamikasini yollanma mehnat bozoridagi gender tafovutlari bilan qiyoslash, har ikki mamlakatdagi institutsional qo'llab-quvvatlash tizimlarini tahlil qilish va xalqaro ilg'or tajriba asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Xitoy va O'zbekistonda ayollar tadbirkorligi va yollanma mehnat bozoridagi gender tafovuti ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish.
2. O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi huquqiy-institutsional bazani tizimlashtirish.
3. BMTTD so'rovi va fokus-guruh natijalari asosida tadbirkor ayollar duch kelayotgan to'siqlar tarkibini aniqlash.
4. Xalqaro ilg'or tajriba (Finlyandiya, Shimoliy Makedoniya) asosida saboqlarni umumlashtirish.
5. O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar shakllantirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xitoyda ayollar tadbirkorligi va mehnat bozoridagi gender masalalari xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli qirralardan yoritilgan. *Forbes* jurnalida e'lon qilingan tadqiqotda xitoylik yetakchi investorlar orasida ayollar ulushi (26,7 foiz) AQShdagi shunga o'xshash ko'rsatkichdan (5,7–8,3 foiz) sezilarli darajada yuqori ekanligi, shuningdek, 2023-yilda dunyodagi o'nta yetakchi ayol tadbirkordan yettitasi xitoylik bo'lgani ko'rsatilgan [5]. *China Briefing* tadqiqotida esa raqamli iqtisodiyot ayollar uchun 60 million yangi ish o'rni yaratgani qayd etilgan [4]. Rossiyalik va xitoylik tadqiqotchilar I. V. Tsygankova va Xuan In hammuallifligidagi tadqiqotda Xitoyning an'anaviy yollanma mehnat bozoridagi mavjud holatni yanada yaxshilash imkoniyatlari mavjudligi ta'kidlanadi [11].

O'zbekiston bo'yicha eng to'liq va dolzarb birlamchi manba BMT Taraqqiyot dasturining 2025-yilgi "O'zbekistonda ayollar tadbirkorligi: tahlil va tavsiyalar" hisobotidir [14]. Ushbu hisobot Jahon bankining WDI va



WBL ma'lumotlar bazalari, Markaziy bank statistikasi, shuningdek, 4 019 respondentni qamrab olgan original so'rov va fokus-guruh natijalariga asoslanadi. Hisobotda O'zbekistondagi korxonalarning 26 foizida ayol asosiy egalardan biri, 12 foizida esa bosh direktor ayol ekanligi qayd etilgan. Mazkur ko'rsatkichlarni yanada oshirish orqali O'zbekistonning dunyo o'rtacha ko'rsatkichlariga (34 foiz va 19 foiz), shuningdek, Qozog'iston, Qirg'iziston va Rossiya ko'rsatkichlariga yaqinlashish imkoniyatlari mavjudligi ko'rsatilgan [14]. Shimoliy Makedoniya tajribasini tahlil qilgan Risteska (2023) tadqiqotida milliy strategiyani monitoring ko'rsatkichlari va byudjetini yanada takomillashtirish samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi [15]. OECD/YEI (2018) esa Finlyandiya'dagi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini tahlil qiladi [16].

Yuqorida ko'rsatilgan ishlardan farqli o'laroq, mazkur maqolada ayollar tadbirkorligi Xitoy va O'zbekiston misolida yagona tizim doirasida, har ikki mamlakatdagi yollanma mehnat bozorida gender tafovuti dinamikasiga nisbatan qiyoslanadi hamda O'zbekiston bo'yicha ilk marta BMTTDning 2025-yilgi original so'rov ma'lumotlari (to'siqlar reytingi, mintaqaviy farqlar) tadqiqotga jalb etiladi. Bu tadqiqotning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada vaqt qatorlari tahlili (*time-series analysis*) usulidan foydalanildi: XMT va milliy statistika ma'lumotlari asosida Xitoyda 1990–2025-yillar oralig'idagi LFPR gender tafovuti dinamikasi aniqlandi. O'zbekiston bo'yicha BMTTD tomonidan 2024-yil oxirida o'tkazilgan so'rov (5 543 respondent, ulardan 4 019 tasi tahlil qilingan) va fokus-guruh muhokamalari natijalari ikkilamchi tahlil qilindi. Bu sotsiologik so'rov usulining tadqiqotga jalb etilishini bildiradi. Normativ-huquqiy tahlil usuli orqali O'zbekistonning 2019–2024-yillardagi Prezident farmonlari va qarorlari, shuningdek, Xitoyning tegishli qonunchilik hujjatlari tizimlashtirildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida har ikki mamlakat natijalari xalqaro ilg'or tajriba (Finlyandiya, Shimoliy Makedoniya) bilan solishtirildi va umumlashtiruvchi xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Xitoy: an'anaviy mehnat bozoridagi gender tafovuti fonida tadbirkorlikning o'rni. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar Xitoyda LFPR gender tafovutining barqaror xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [3], [11]: 1990-yilda tafovut 9,4 protsent punktini tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib u 14,1 p.p.gacha kengaygan va 2025-yilga kelib 10–11 p.p. darajasigacha qisman qisqargan (1-jadval).

1-jadval
Xitoyda mehnat bozoridagi ishtirok darajasining (LFPR) gender bo'yicha dinamikasi, 1990–2025-yillar¹

Yil	Ayollar LFPR (%)	Erkaklar LFPR (%)	Gender tafovuti (p.p.)
1990	73,2	82,6	9,4
2000	70	81	11
2010	66	79	13
2019	60,5	75	14,1
2025	59,1–60	69,9	10–11

Ushbu gender tafovuti fonida ayollar tadbirkorligi va raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari sezilarli o'sish dinamikasini namoyon etmoqda (2-jadval). Raqamli iqtisodiyot ayollar uchun 60 million yangi ish o'rni yaratgan, xitoylik yetakchi investorlar orasida ayollar ulushi (26,7 foiz) esa AQShdagi tegishli ko'rsatkichdan (5,7–8,3 foiz) sezilarli darajada yuqori [4], [5] (2-jadval).

2-jadval.
Xitoyda ayollar tadbirkorligi va raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari²

Ko'rsatkich	Qiymat
Raqamli iqtisodiyot orqali ayollar uchun yaratilgan ish o'rinlari	60 million
Dunyodagi top-10 yetakchi ayol tadbirkordan xitoylik bo'lganlar (2023-yil)	7 tasi
Xitoylik yetakchi investorlar orasida ayollar ulushi	26,7%
AQShdagi yetakchi investorlar orasida ayollar ulushi (qiyoslash uchun)	5,7–8,3%
Ayollarning korxonalar boshqaruv kengashlaridagi ulushi	37,7%

1 Manba: XMT (ILO) ma'lumotlari; Tsygankova I.V., Xuan In tadqiqotlari [3], [11] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2 Manba: [4], [5] asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2. O'zbekiston: tadbirkorlik ko'lamining kengayishi va uning tarkibiy xususiyatlari. BMTTDning 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilda kichik biznes subyektlari mamlakat YAIMining 55 foizini shakllantirgan; 2024-yilda 5,2 millionga yaqin tadbirkor faoliyat yuritgan bo'lib, ulardan 2,1 million nafari ayollar edi — bu 2020-yilga nisbatan yetti barobar ko'p. Tadbirkor ayollar iqtisodiyotda band bo'lgan barcha ayollarning qariyb 35 foizini tashkil etadi [14]. Tadbirkorlik tarkibi tahlil qilinganda muhim tarkibiy tafovut kuzatiladi: o'zini o'zi band qilganlar orasida ayollar ulushi 42 foizni (1,9 million kishi), yakka tartibdagi tadbirkorlar orasida 43 foizni tashkil etsa, yuridik shaxs (korporativ) tadbirkorlar orasida ushbu ko'rsatkich 17 foizni tashkil etadi [14]. Mazkur holat ayollarning norasmiy va kichik shakldagi tadbirkorlikdagi faolligi yuqori ekanligini, korporativ darajada esa ularning ishtirokini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Bu Xitoyda kuzatilgan tendensiyaga o'xshash: umumiy tadbirkorlik ko'rsatkichlari ijobiy bo'lib, yuqori boshqaruv darajasida gender muvozanatini yanada mustahkamlash imkoniyatlari mavjud (3-jadval).

3-jadval

O'zbekistonda ayollarga tegishli va ayollar rahbarlik qiladigan korxonalar ulushi (xalqaro qiyosda)³

Mamlakat / guruh	Asosiy egalaridan biri ayol bo'lgan korxonalar ulushi	Bosh direktori ayol bo'lgan korxonalar ulushi
O'zbekiston	26%	12%
Dunyo bo'yicha o'rtacha	34%	19%
Daromadi o'rtachadan yuqori mamlakatlar	36%	21%
Qozog'iston	31%	26%
Qirg'iziston	34%	22%
Rossiya	34%	24%

3. Huquqiy-institutsional baza. O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi doirasida bir qator Prezident farmonlari va qarorlari orqali amalga oshirilmoqda (4-jadval) [14].

4-jadval

O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi asosiy huquqiy hujjatlar⁴

Hujjat	Sana	Asosiy mazmuni
4235-sonli Prezident qarori	2019-yil 7-mart	Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etildi: ish boshlash, biznes-reja tuzish, joy va uskuna topishda amaliy yordam
87-sonli Prezident farmoni	2022-yil 7-mart	Tadbirkorlikni boshlayotgan ayollarga subsidiya 725 AQSH dollaridan 905 AQSH dollarigacha oshirildi; qishloqlarda ayollarni o'qitishga yillik 4 mln. dollar ajratildi
122-sonli Prezident qarori	2024-yil 7-mart	"Xalq banki", Biznesni rivojlantirish banki va "Mikrokreditbank"ka jami 100 mln. dollar ajratildi (7 yil, yillik 14% stavka)
401-sonli Prezident farmoni	2023-yil 21-dekabr	Kasanachi va hunarmand ayollar uchun kasb-hunar kurslari xarajatining 70%i qoplanadi
886-sonli QR qonuni (Davlat byudjeti)	2023-yil 25-dekabr	Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlariga va NNTlarga jami ~100 mlrd. so'm grant ajratildi
249-sonli Prezident farmoni	2024-yil 10-iyul	Xotin-qizlarga tegishli kichik tadbirkorlik subyektlarini davlat xaridlariga jalb etish tartibi belgilandi

4. So'rov natijalari: to'siqlar tarkibining o'zgarishi. BMTTDning 4 019 respondentni qamrab olgan so'rovi shuni ko'rsatdiki, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati O'zbekistondagi tadbirkor ayollar faoliyatini rivojlantirishda muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda. Respondentlarning 48 foizi ish va oila o'rtasidagi muvozanatni "katta yoki juda katta muammo" deb baholagan bo'lsa, 32 foizi uni kichik muammo yoki umuman muammo emas deb hisoblagan. Moliyaviy resurslardan foydalanishni respondentlarning 41 foizi jiddiy muammo deb baholagan, 49 foizi esa uni kichik muammo yoki muammo emas deb ko'rsatgan [14]. Ushbu natija "Women, Business and the Law 2026" hisobotidagi xulosa bilan bir xil yo'nalishda bo'lib, institutsional-huquqiy islohotlar (2017-yildan keyingi bozor islohotlari) moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qilganini, shu bilan birga, parvarishlash yuki bilan bog'liq ijtimoiy-madaniy omillarni yanada takomillashtirish imkoniyatlari

3 Manba: Jahon banking WDI ma'lumotlar bazasi, BMTTD (2025) [14] asosida.

4 Manba: BMTTDning 2025-yilgi hisoboti, 1-jadval [14] asosida muallif tomonidan qisqartirilgan holda tuzilgan.



mavjudligini ko'rsatadi [13]. Hududiy kesimda Surxondaryo, Andijon va Farg'onada tegishli ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash imkoniyatlari mavjud bo'lsa, Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent shahrida nisbatan qulay sharoitlar qayd etilgan [14].

Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, Finlyandiyada — dunyoda gender tengligi bo'yicha yetakchi mamlakatlardan birida — tadbirkorlik muhitining qulayligi ijtimoiy siyosat (bola parvarishi, moslashuvchan ta'til tizimi) bilan uyg'unlashtirilgani hisobiga ta'minlangan [16]. Shimoliy Makedoniya tajribasi esa ayollar tadbirkorligi strategiyasini (SWED) monitoring ko'rsatkichlari va maxsus byudjet bilan ta'minlash, shuningdek, uni gender tengligi strategiyasi bilan muvofiqlashtirish samaradorlikni yanada oshirish imkonini berishini ko'rsatadi [15]. O'zbekiston uchun ushbu ikki tajribaning qiyosiy tahlili dasturlarning sonidan ko'ra, ularning o'zaro muvofiqlashtirilishi va parvarishlash iqtisodiyoti bilan uyg'unlashtirilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Xitoy va O'zbekistonda tadbirkorlikning jadal rivojlanishi yollanma mehnat bozoridagi gender tafovutlarini yanada qisqartirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Har ikki tizim parallel ravishda mavjud bo'lib, ular birgalikda ayollarning umumiy iqtisodiy mustaqilligini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston uchun BMTTD tadqiqoti va Xitoy tajribasi asosida quyidagi amaliy takliflar shakllantirildi:

1. Tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashni parvarishlash iqtisodiyoti siyosati bilan uyg'unlashtirish — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan bolalar (va kelajakda qariyalar) parvarishi xizmatlarini kengaytirish, chunki so'rov natijalariga ko'ra, ushbu omil moliyaviy resurslardan foydalanish bilan bir qatorda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Moliyaviy sektordagi islohotlarni bank tizimidan tashqari yo'nalishlarga (sug'urta, lizing) kengaytirish — Xitoy va xalqaro banklar tajribasidagi kabi, ayollar rahbarlik qiladigan korxonalarni alohida tijorat segmenti sifatida tan olish.

3. Korporativ darajadagi gender muvozanatini yanada mustahkamlash — ayollar ulushi yakka tartibdagi tadbirkorlikda 43 foiz, korporativ shaklda esa 17 foiz ekanini hisobga olib, ayollar tashkil etgan kichik bizneslarning yuridik shaxs darajasiga o'sishini rag'batlantirish.

4. Hududiy tafovutlarni hisobga olgan siyosatni amalga oshirish — Surxondaryo, Andijon va Farg'ona kabi tegishli ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash imkoniyatlari mavjud bo'lgan hududlarga maqsadli dasturlarni yo'naltirish.

5. Dasturlarni monitoring qilish tizimini kuchaytirish — Shimoliy Makedoniya tajribasidan kelib chiqib, har bir davlat dasturi uchun aniq va o'lchanadigan (SMART) ko'rsatkichlarni belgilash hamda tegishli byudjetni rejalashtirish.

6. Fuqarolik jamiyati tashkilotlarining rolini kengaytirish — Finlyandiyadagi *Women Entrepreneurs* assotsiatsiyasi tajribasi asosida tadbirkor ayollar manfaatlarini davlat siyosati darajasida ifodalovchi barqaror platformalarni yaratish.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy va O'zbekiston tajribasining qiyosiy tahlili ayollar tadbirkorligi gender tengligini ta'minlashning muhim mexanizmlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Uning kengroq institutsional muhit, ayniqsa, parvarishlash yukining samarali taqsimlanishi va moliyaviy xizmatlar tizimi bilan uyg'unlashtirilishi barqaror natijalarga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Национальное бюро статистики Китая. China Statistical Yearbook 2023. – Beijing: China Statistics Press, 2023. – 456 p.
2. Zhang L., Huang Y. Gender discrimination at work is dragging China's growth // Peterson Institute for International Economics (PIIE). – 2021.
3. International Labour Organisation (ILO). Statistical Data on Female Labour Force Participation. – Geneva: ILO, 2021.
4. Gender Equality in China's Labor Market 2025 // China Briefing. – 2025.
5. Wu R. Closing the Gap: What Can We Learn About Gender Parity From China and the U.S. // Forbes. – 2025. – March 7.
6. Цой М. П., Саидахмедова Д. С. Гендерное равенство – мировой опыт и практика Узбекистана // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2021.
7. Особенности правового регулирования гендерного равенства: международный и национальный аспект // Актуальные проблемы гуманитарных наук. – 2021.



8. Zeitz W. Предпочтения в отношении дискриминации женщин в оплате труда // Spot.uz. – 2023. – 30 августа.
9. Всемирный банк. Гендерное равенство позволит Узбекистану вывести из бедности 700 тысяч человек // Spot.uz. – 2024. – 27 марта.
10. United Nations. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). – New York: UN General Assembly, 1979.
11. Цыганкова И. В., Хуан Инь, Дегтярев Н. И. Качество трудовой жизни женщин в Китайской Народной Республике // Экономика труда. – 2022. – № 12. – С. 3123–3136.
12. World Bank. Gender at Work: A Companion to the World Development Report on Jobs. – Washington, DC: World Bank Group, 2014.
13. World Bank. Women, Business and the Law 2026. – Washington, DC: World Bank Group, 2026.
14. UNDP. O'zbekistonda ayollar tadbirkorligi: tahlil va tavsiyalar. – Toshkent: BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2025. – 62 b.
15. Risteska M. Roadmap for a Gender-Responsive Investment Climate in North Macedonia. – London; Skopje: European Bank for Reconstruction and Development, 2023.
16. OECD; European Union. Inclusive Entrepreneurship Policies: Country Policy Assessment – Finland, 2018. – Paris; Brussels: OECD Publishing, 2018.
17. Khera P., Ng S., Ogawa S., Sahay R. Women in Fintech: As Leaders and Users. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2022. – (IMF Working Paper).
18. Ybyshova K. Breaking Barriers: How Financial Inclusion Is Unlocking the Potential of Women Entrepreneurs in Uzbekistan. – Washington, DC: IFC, 2025.
19. Dassanou M. E., Rusu D., Marchetti A. Women-Owned SMEs: A Business Opportunity for Financial Institutions. – Washington, DC: World Bank Group, 2014.
20. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4494849>
21. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida": SQ-297-IV-son qarori: <https://lex.uz/docs/-5466673>
22. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 18-martdagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" SQ-102-V-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-7482932>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>